

**MOTURIDIYNING “TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDAGI SABABI
NUZUL RIVOYATLARI: TAHLIL VA TASNIF**

Yaxshilikov Abdulaziz Mo‘minovich

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" asarida Qur'on oyatlari uchun turli sabablarga oid rivoyatlar keltirilgan. Ushbu asarda, ko'plab oyatlar uchun bir necha turli sabablarga oid rivoyatlar mavjud bo'lib, ba'zilarida u ikkita, ba'zilarida esa uch, to'rt yoki hattoki beshta rivoyatni taqdim etgan. Masalan, Baqara surasidagi oyatlar, Niso surasidagi bir nechta oyatlar va boshqa ko'plab oyatlar uchun farqli sabablarga oid rivoyatlar naql qilingan. Moturidiy bu rivoyatlar yordamida oyatlarning ma'nolari va tushunilishiga oid ijtimoiy-siyosiy kontekstlarni taqdim etgan. Bu asar Qur'onni tahlil qilishda, tafsirlashda va sababi nuzulni tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, "Ta'vilot al-Qur'on", sababi nuzul, rivoyatlar, tafsir, Qur'on oyatlari, Baqara surasi, Niso surasi, ijtimoiy kontekst.

Imom Moturidiy “Ta’vilot al-Qur’on” asarining ko‘p o‘rnida bir oyat uchun bitta sababi nuzul rivoyatini keltirgan. Shu bilan bir qatorda, u bir oyat uchun ikki yoki undan ortiq rivoyat naql qilgan o‘rinlar ham mavjud bo‘lib, ular ozchilikni tashkil qiladi.

Moturidiy “Ta’vilot”da 54 ta oyat bilan bog‘liq ikki yoki undan ortiq farqli sababi nuzul rivoyatlariga murojaat qilgan. Mazkur oyatlarda ko‘pincha ikkita, ba‘zan uch yoki to‘rtta, juda oz holatda esa beshta rivoyat naql qilgan. Ushbulardan 38 ta oyatda bir-biridan farqli ikkitadan sababi nuzul rivoyat qilingan¹. Masalan, Moturidiy Baqara surasining **“Odamlar orasida shunday kimsa ham borki, uning dunyo hayoti to‘g‘risidagi gapi sizga qiziqarli bo‘ladi. Dilidagi**

¹ Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. I–XVIII j. Baqara surasi 199, 204-oyatlar; Oli Imron surasi 31-oyati; Niso surasi 7, 19, 38, 43, 65, 69, 83, 100, 127, 148-oyatlar; Moida surasi 2, 33, 41, 55-oyatlar; An'om surasi 23-oyat; Anfol surasi 55–56-oyatlar; Tavba surasi 62, 74, 75, 102, 103-oyatlar; Nahl surasi 126-oyat; Nur surasi 47, 58-oyatlar; Sajda surasi 16, 28-oyatlar; Ahzob surasi 1-oyat; Zumar surasi 53-oyat; Sho'ro surasi 23-oyat; Hujurot surasi 1, 2, 4-oyatlar; Sof surasi 2-oyat; Zuho surasi 3-oyat; Qadr surasi 3-oyat.

“imoni”ga Allohni guvoh qiladi, vaholanki, o‘zi (islomga) dushmanlarning ashaddiysidir”² oyati uchun ikki xil sababi nuzul rivoyatini keltirgan. Bulardan birinchisiga ko‘ra, ushbu oyat bitta kofir kishi haqida nozil bo‘lgan. U Payg‘ambar (s.a.v.)ning oldiga kelib, uni yaxshi ko‘rishini, immon keltirishini aytadi va unga ergashishga va‘da beradi hamda qasam ichadi. Bu holat Payg‘ambar (s.a.v.)ga yoqadi va uni majlisda o‘ziga yaqin tutadi. Holbuki uning qalbida tamoman bularning ziddi bor edi. Shunda Alloh yuqoridagi oyatni nozil qiladi³. Keyingi rivoyatga ko‘ra, mazkur oyat munofiqlar haqida nozil bo‘lgan. Chunki munofiqlar din xususida o‘zlarini Payg‘ambar (s.a.v.)ga munosib tutar, uning dini va mazhabida ekanliklarini aytib, qasam ichishar, ularga muxolif va dushmanliklarini yashirishardi. Shu sababli Alloh ushbu oyatni nozil qilgan⁴.

Moturidiy 8 ta oyatda bir-biridan farqli uchtadan sababi nuzulni naql qilgan⁵. Muallifning bitta oyat uchun uch xil sababi nuzul zikr qilgan o‘rinlardan biri **“Sizlarga ne bo‘ldikim, munofiqlarga nisbatan ikki guruh (bo‘lib oldingiz)?!...”**⁶ oyati tafsiridir. Moturidiy ushbu oyat tushish vaqtida sodir bo‘lgan hodisa haqida ixtiloflar borligini aytgan. U dastlab quyidagi rivoyatni naql qilgan. Unga ko‘ra, bir guruh makkaliklar Madinada Payg‘ambar (s.a.v.)ning oldiga kelib musulmon bo‘ladi va bir muddat o‘sha yerda qoladi. Keyin Madinaning havosiga moslasha olmay kasal bo‘lishadi. So‘ng pushaymon bo‘lib, Makkaga qaytadilar. Keyinroq Payg‘ambar (s.a.v.)ga maktub yozib, hali ham Alloh va Rasulini tasdiqlashlarini bildiradilar. So‘ngra ushbu kishilar savdo uchun Makkadan Shomga qarab yo‘lga chiqadilar. Bu xabar musulmonlar Payg‘ambar (s.a.v.)ning yonlarida turgan paytda yetib keladi. Ular bir-birlariga: “Dinimizdan yuz o‘girgan,

² Baqara surasi 204-oyat.

³ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. I. – B. 410; Ushbu rivoyat Muqotil, Tabariy, Abu Lays Samarqandiy va Vohidiy tomonidan ham keltirilgan. Qarang: Muqotil ibn Sulaymon. Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – Bayrut: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1423/2002. – J. I. – B. 177–178; Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome‘ al-bayon an Ta‘vili oyat al-Qur‘on. – Bayrut: Dor al-fikr, 1415/1995. – J. II. – B. 425; Abu Lays Samarqandiy. Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – Bayrut: Dor al-fikr, 1416/1996. – J. I. – B. 135–136; Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur‘on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – B. 66.

⁴ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. I. – B. 410; Manbalarda ushbu sababi nuzul rivoyati ayni ko‘rinishda uchramaydi. Lekin Tabariy oyat munofiqlar haqida tushganini aytgan holda lafzan va ma‘nan boshqacharoq sababi nuzulni keltirgan. Qarang: Jome‘ al-bayon an Ta‘vili oyat al-Qur‘on. – J. II. – B. 426.

⁵ Niso sura 88, 97-oyatlar; A‘rof surasi 204-oyat; Anfol surasi 1, 27-oyatlar; Ahzob surasi 28-oyat; Sho‘ro surasi 16-oyat; Hujurot surasi 9-oyat.

⁶ Niso surasi 88-oyat.

hijratni tark etgan bu kishilarni ustiga borib, ularni o'ldirib mollarini olishdan bizni nima man qiladi?". Boshqa bir guruh: "Dinimizdan bo'lgan bir jamoatni qanday o'ldirasiz?" deydi. Payg'ambar (s.a.v.) esa bu so'zlarni eshitib sukut saqlagan holda hech birlarining gapini to'xtatmaydi. Oxirida ularning holatlariga oydinlik kiritgan **"Sizlarga ne bo'ldikim, munofiq'larga nisbatan ikki guruh (bo'lib oldingiz)?!..."**⁷ oyati nozil bo'ladi"⁸. Moturidiy keltirgan boshqa bir rivoyatga ko'ra, mazkur oyat Uhud jangida qatnashmagan bir guruh haqida nozil bo'lgan. Sahobalar ular borasida ikkiga bo'linishadi. Bir guruh Payg'ambar (s.a.v.)ga: "Ularni o'ldiring" desa, boshqasi: "Ularni afv eting" deydi. Shunda mazkur oyat nozil bo'ladi⁹. Mavzuga doir oxirgi rivoyat esa, sahobalar bir guruh makkaliklar borasida tortishishadi. Ba'zilar ularning kofir ekanliklarini, ayrimlari esa ularning musulmonlar so'yg'an hayvonlardan yeyishlarini, namoz o'qib, da'vatga ijobat bildirishganini, shu sababli ular musulmonlar bilan teng ekanligini aytishsa, ba'zilar esa ularning Payg'ambar (s.a.v.)ni tark etib, uning yonida turishmaganini aytib, katta ixtilofga tushadilar. Shunda ushbu oyat nozil bo'ladi¹⁰.

Moturidiy "Ta'vilot"da 7 ta oyatda to'rtadan sababi nuzul keltirgan. Masalan, u **"Siz uchun (ey, Muhammad!) bu ishda biror ixtiyor yo'qdir. Allohning O'zi ularning tavbasini (balkim) qabul qilar yoxud jazolar..."**¹¹ oyati bilan bog'liq bir-biridan farqli to'rtta sababi nuzul rivoyatini bergan. Bulardan birinchisiga ko'ra, Uhud kuni Payg'ambar (s.a.v.)ning yuzi tiralib, oziq tishlari sinadi. U kishi bu ishni qilganlarni qarg'aydi. Shunda mazkur oyat tushadi¹². Boshqa bir rivoyatga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ning sahobalaridan bir jamoa mushriklar bilan jang qilish uchun

⁷ Niso surasi 88-oyat.

⁸ Ta'vilot al-Qur'on. – J. III. – B. 371; Mazkur rivoyat ayni mazmunda va o'xshash lafzlar bilan Muqotil tomonidan keltirilgan. Qarang: Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – J. I. – B. 394–395; Tabariyda o'xshash ma'noda kelgan bir rivoyat mavjud. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. V. – B. 263; Vohidiy esa o'xshash sababi nuzulni qisqaroq shaklda qayd etgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 172.

⁹ Ta'vilot al-Qur'on. – J. III. – B. 372; Shunga o'xshash sababi nuzul rivoyatini Tabariy va Vohidiy ham o'z asarlarida keltirgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. V. – B. 262; Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 171–172.

¹⁰ Ta'vilot al-Qur'on. – J. III. – B. 372; Tabariy shunga o'xshash rivoyatni boshqacharoq mazmunda Ibn Abbosdan naql qilgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. V. – B. 263.

¹¹ Oli Imron surasi 128-oyat.

¹² Ta'vilot al-Qur'on. – J. II. – B. 409; Mazkur sababi nuzulni Tabariy farqli usul va variantlarda batafsilroq shaklda keltirgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. IV. – B. 115–117; O'xshash ma'nodagi rivoyatni Vohidiy ham qayd etgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 124–125.

g'azotga chiqishadi. Jangda hamma musulmonlar o'ldiriladi. Bu hodisa Payg'ambar (s.a.v.) va sahobalarga og'ir keladi. Shunda Payg'ambar (s.a.v.) qirq kun bomdod namozida mushriklarini duoyibad qiladi. Natijada mazkur oyat nozil bo'ladi¹³. Moturidiy mavzuga doir uchinchi rivoyatni Ibn Umardan naql qilgan bo'lib, unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ning Uhud kuni "Allohim! Abu Sufyonni la'natla. Allohim falonchini la'natla" deb bir jamoani duoyibad qilganida, ushbu oyat nozil bo'ladi¹⁴. Oxirgi rivoyatda esa bir guruh musulmonlarning mag'lubiyatga uchrashi Payg'ambar (s.a.v.)ga og'ir kelganida shu oyat tushgani haqida ma'lumot berilgan¹⁵.

Moturidiy faqat Nur surasining 61-oyati haqida besh xil sababi nuzul rivoyatni zikr qilgan. Birinchi rivoyatga ko'ra, sog'lom kishi rahmdilligi sababli ko'r, cho'loq va bemor bilan birga taom yeyishdan qochadi va: "Ko'r taomni qandayligini ko'rolmaydi, balki men yaxshisini yer ekanman, u yomonini yer. Cho'loq to'g'ri o'tirolmaydi va shuning uchun men yeganimdan yeyolmaydi. Bemor kishi ham sog'lom kishi kabi yeyolmaydi" deydi. Shuningdek, bir kishi ota-onasi uyda bo'lmasa, ovqat yemasdi. Yana oyatda zikr qilingan kishilarning uyida ham yemasdi. Alloh ushbu oyatni barcha bu masalalarga ruxsat berish uchun nozil qiladi¹⁶. Moturidiy naql qilgan boshqa sababi nuzul rivoyatiga ko'ra, ba'zi kishilar surunkali kasal, ko'r, cho'loq, bemor va muhtojlarni uyiga chaqirar, uylarida ularni taomlantirar, hech nima topilmaganda esa ularni otalarining hamda oyatda zikr qilingan boshqa kishilarning uyiga olib borishardi. Taomga chaqirilganlar esa da'vat qilganlarning uyidan boshqa joyda ruxsatisiz va taklifsiz holda taomlanishni xushlashmasdi. Shuning uchun Alloh ularga bu borada ruxsat berish uchun tegishli

¹³ Ta'vilot al-Qur'on. – J. II. – B. 410; Ushbu rivoyat batafsil holda o'xshash bir shaklda Muqotil tomonidan keltirilgan. Qarang: Tafsiro Muqotil ibn Sulaymon. – J. I. – B. 300; Abu Lays Samarqandiy mazkur rivoyatni Muqotildan olgan. Qarang: Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – J. I. – B. 245.

¹⁴ Ta'vilot al-Qur'on. – J. II. – B. 410; Moturidiy qisqacha to'xtalib o'tgan ushbu rivoyat Tabariy tomonidan tafsilotlari bilan keltirilgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. IV. – B. 117–118.

¹⁵ Ta'vilot al-Qur'on. – J. II. – B. 410.

¹⁶ Ta'vilot al-Qur'on. – J. X. – B. 205; Muqotil va Tabariy ushbu rivoyatga o'xshash mazmundagi rivoyatni keltirishgan. Qarang: Tafsiro Muqotil ibn Sulaymon. – J. III. – B. 209; Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. XVIII. – B. 223–224; Vohidiy esa mazkur sababi nuzulni Ibn Abbosdan naql qilgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 339–340.

oyatni nozil qiladi¹⁷. Mavzuga oid uchinchi rivoyatga ko‘ra, ko‘r, cho‘loq, bemor va surunkali kasal kishilar sog‘lom odamlar ulardan jirkanishidan va ularni nopok deb bilishishlaridan qo‘rqib, ular bilan ovqatlanishdan qochishardi. Cho‘loq: “Men odamlar bilan ovqat yemayman, chunki men ikki kishilik joyni egallab, ularga xalaqit beraman” desa, ko‘r odam: “Men ularning ovqatlanishini rasvo qilaman” deydi, kasal odam esa shunga o‘xshash gaplarni aytadi. Shunda Alloh taolo ushbu oyatni ularning sog‘lom odamlar bilan birga ovqatlanishida gunoh yo‘qligini bildirish uchun nozil qiladi¹⁸. To‘rtinchi rivoyatda aytilishicha, bir boy odam kambag‘al va surunkali kasal kishining oldiga borib, uni ovqatga taklif qilgan ekan: “Allohga qasamki, men boy va sen kambag‘al bo‘lib turib, sening taomingdan yeyishni gunoh deb bilib, bundan siqilaman” deydi. Shunda Alloh ushbu oyatni nozil qiladi¹⁹. Oxirgi rivoyatga ko‘ra, bu oyat mujohidlar haqidadir. Bir kishi jihodga chiqish oldi o‘zing o‘rniga molini, oilasini himoya qilishi va majburiyatlarini ado etishi uchun boshqa bironi qoldiradi. Mazkur kishi esa ruxsat berilmagani sababli na u kishining molidan sarflaydi va na taomidan yeydi. Shunda Alloh ushbu taomlarni iste‘mol qilish joiz ekanligini va unga ruxsat berilganini bildirish uchun ushbu oyatni nozil qiladi²⁰.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Moturidiy 222 ta oyatga bir-biridan farqli bo‘lgan 298 ta rivoyatni qayd etgan. Bu oyatlarning 38 tasiga ikkitadan rivoyat, 8 tasiga uchtdan rivoyat, 7 tasiga to‘rttdan rivoyat va bittasiga beshtadan rivoyat keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

¹⁷ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. X. – B. 205; Tabariy bu sababi nuzul rivoyatini yaqin lafzlar bilan Mujohiddan naql qilgan. Qarang: Jome‘ al-bayon an Ta‘vili oyat al-Qur‘on. – J. XVIII. – B. 224; Shunga o‘xshash bir rivoyatning sandini Mujohidga ulagan holda Vohidiy ham keltirgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur‘on. – B. 340.

¹⁸ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. X. – B. 205–206; Ibn Abu Xotim mazmunan o‘xshash bir rivoyatni juda qisqa shaklda Said ibn Jubayrdan naql qilgan. Qarang: Ibn Abu Xotim / Abdurahmon ibn Muhammad. Tafsir al-Qur‘on al-azim. – Makka: Maktabatu Nizor, 1417/1997. – J. VIII. – B. 26–45; Abu Lays Samarqandiy lafzi va tafsiloti yaqin bo‘lgan bir rivoyatga o‘z asarida o‘rin ajratgan. Qarang: Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – J. II. – B. 547. Vohidiy esa Ibn Abu Xotim rivoyatiga ishora qilgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur‘on. – B. 340.

¹⁹ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. X. – B. 206. Mazkur rivoyat ancha yaqin lafzlar bilan Ibn Abu Xotim tomonidan qayd etilgan. Qarang: Tafsir al-Qur‘on al-azim. – J. VIII. – B. 26–47.

²⁰ Ta‘vilot al-Qur‘on. – J. X. – B. 206; Mazkur rivoyat o‘xshash mazmunda Muqotil va Tabariy tomonidan qays etilgan. Qarang: Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – J. III. – B. 209; Jome‘ al-bayon an Ta‘vili oyat al-Qur‘on. – J. XVIII. – B. 224–225; Abu Lays Samarqandiy ham shu ma‘noda bir necha rivoyatni keltirgan. Qarang: Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – J. II. – B. 547–548.

1. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. I – XVIII j.
2. Muqotil ibn Sulaymon. Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – Bayrut: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1423/2002. – I–V j.
3. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-fikr, 1415/1995. – I–XXX j.
4. Abu Lays Samarqandiy. Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – Bayrut: Dor al-fikr, 1416/1996. – I–III j.
5. Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – 568 b.
6. Ibn Abu Xotim / Abdurahmon ibn Muhammad. Tafsir al-Qur'on al-azim. – Makka: Maktabatu Nizor, 1417/1997. – I–X j.